

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 290 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlar.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	125
Abirkulova Sohijjamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan)	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda solliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubi-yatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi.....	192
Sabirova Asal Shuhratovna	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish	225
Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	256
G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...	266
G. I. Abdulxamidova	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY SALOHIYATNI BOSHQARISH

Kadirova Shaxnoza Ilhomovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: XXI asrning so'nggi davrida ko'plab ahamiyatli hodisalar sodir bo'ldi, ya'ni xalqaro iqtisodiy munosabatlarda milliy sanoatning raqobatbardoshligi birinchi o'ringa chiqdi. Shu bois innovatsion sharoitda milliy iqtisodiy salohiyatni ta'minlash va saqlash dunyoning ko'pgina davlatlarining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Barcha darajadagi iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligini ta'minlashga imkon beradigan asosiy muammolardan biri bu sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini aniqlash va uni amalga oshirish va rivojlantirishning eng maqbul yo'nalishlarini ishlab chiqishdir.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, iqtisodiy salohiyat, samaradorlik, sanoat korxonalari, raqobatbardoshlik.

Abstract: In the last period of the 21st century, many important events took place, that is, the competitiveness of the national industry came to the fore in international economic relations. Therefore, ensuring and maintaining the national economic potential in an innovative environment has become one of the vital tasks of many countries of the world. One of the main problems that allows to ensure the efficiency of management of economic processes at all levels is to determine the economic potential of industrial enterprises and to develop the most optimal directions for its implementation and development.

Key words: innovations, economic potential, efficiency, industrial enterprises, competitiveness.

Аннотация: В последний период XXI века произошло много важных событий, то есть конкурентоспособность национальной промышленности вышла на первый план в международных экономических отношениях. Поэтому обеспечение и поддержание национального экономического потенциала в инновационной среде стало одной из актуальных задач многих стран мира. Одной из основных проблем, позволяющей обеспечить эффективность управления экономическими процессами на всех уровнях, является определение экономического потенциала промышленных предприятий и разработка наиболее оптимальных направлений его реализации и развития.

Ключевые слова: инновации, экономический потенциал, эффективность, промышленные предприятия, конкурентоспособность.

KIRISH

Hozirgi vaqtda kuchli ilmiy-texnikaviy va intellektual salohiyat talab qiladigan iqtisodiy rivojlanishning innovatsion turiga o'tish har bir davlat uchun juda dolzarb masallardan biridir. Shu munosabat bilan iqtisodiyot fani o'zining yangi nazariyasini ana shu tamoyillar asosida yaratish zarurati bilan yuzma-yuz turibdi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'llarini tanlashning zamonaviy muammolarni ko'rib chiqilsa, unda mumkin bo'lgan ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning adekvat nazariy va uslubiy asoslari ustidan tadqiqotlar olib borish jarayoning chuqurlashtirilganligini qayd etish mumkin.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatini boshqarish tushunchasini ilmiy-nazariy jihatidan olib qaraganda, "salohiyatni boshqarish" - bu sifat (ilmiy resurslar) va miqdoriy aniqlik (fanning rivojlanish darajasi) birligi, ya'ni fanning sifat va miqdorning barcha ko'rsatkichlaridan to'liq foydalana olish demakdir. Ilmiy salohiyatning ta'rifi yangi tarkibiy elementlar (masalan, to'plangan bilimlar, texnika va ko'nikmalar), shuningdek, mamlakat ilm-fan salohiyatining erishilgan darajasini jahon darajasi bilan bog'lash zarurligi haqidagi g'oyalar bilan boyitiladi ^[1].

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Fransuz boshqaruv nazariyotchisi va amaliyotchisi hamda boshqaruvning ma'muriy "klassik" maktabining asoschisi Anri Fayol (1841–1925) "boshqaruv" sohasida juda katta hissa qo'shgan. U 30 yil davomida Fransiya yirik kon-metallurgiya kompaniyasini o'ta noqulay iqtisodiy sharoitda (bankrotlik yoqasida) 1918-yilga



kelib kompaniyani eng muvaffaqiyatli korxonalar qatoriga kiritdi. Anri Fayol qo'plab asarlari boshqaruv tamoyillarini umumlashtiradi va mantiqiy izchil nazariyani yaratadi, hamda uning konsepsiyalari menejment rivojlanishida sezilarli iz qoldirdi. Anri Fayol tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv nazariyasi, boshqaruv funktsiyalari va xulq-atvorning ayrim tamoyillari amaliyotda hali ham faol qo'llaniladi. Sanoat korxonalarida boshqaruvni takomillashtirishda, Fayol har bir xodimining mas'uliyatini oshirish orqali boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish tarafdori edi. Frantsuz olimi boshqaruv tuzilmasi asoslanishi kerak bo'lgan 5 ta funktsiyani ajratib ko'rsatdi: rejalashtirish, tashkillashtirish, jamoani boshqarish, koordinatsiya, nazorat qilish. Undan tashqari u boshqaruv samaradorligiga erishish uchun 14 tamoyil ishlab chiqdi: Mehnat taqsimoti, vakolat va mas'uliyat, intizom, buyruqning birligi, shaxsiy manfaatlarning bo'ysunishi, ish haqi, markazlashtirish, skalyar zanjiri, tartib, tenglik, barqarorlik, tashabbus, ma'naviyat. Uning ushbu tamoyillari korxonaning amaliyotida qullanilgan holda iqtisodiy salohiyat boshqaruvining rivojlanishiga hamda takomillashtirilishiga olib keladi [2].

Bir qator rivojlangan mamlakatlarning davlat siyosatida Avstro-amerikalik taniqli iqtisodchi, nazariyatchi, sotsiolog va moliyachi Yozef Alois Shumpeterning g'oyalari qo'llaniladi. Y. Shumpeterning ishlari ilmiy innovatsion iqtisod fanining turli sohalarini qamrab oladi, ya'ni tadqiqot metodologiyasi, iqtisodiy nazariya, iqtisodiy fikr tarixi, iqtisodiy siyosat va boshqalar kiradi. Ular orasida iqtisodiy tarixshunoslik, iqtisodiy evolyutsiya va institutsional evolyutsion nazariyasi ajralib turadi. Olim iqtisodiy dinamikaning harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga harakat qildi. Ilk bor u N.Kondratev tomonidan kashf etilgan farovonlik va depressiya davriy fazalarining to'liq-simon almashinishlari – uning konyunktura sikllari nazariyasini yaratish tadqiqotining asosiy yondashuvi biri bo'ldi. Shumpeterning fikricha bozor tizimining muvaffaqiyati statik optimal muvozanatga samarali erishishda emas, balki texnologiya dinamik o'zgarishlarni amalga oshirish va bunday o'zgarishlar orqali dinamik o'sishga erishish qobiliyatidadir [3].

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini o'rganish va uning yakuniy natijalariga erishish uchun tizimli ravishda tashkil etilgan moddiy, nomoddiy resurslar va ularni o'zgartirish jarayonlari shaklida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

B.M.Mochalovning fikricha, iqtisodiy salohiyat quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- 1) erishilgan (haqiqiy) salohiyat - ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining uning erishilgan tashkiliy darajasida va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish darajasida yaratilgan asosiy fondlar va hajmlarining yig'indisi;
- 2) ideal ishlab chiqarish sharoitida va resurslardan maqbul foydalanish sharoitida erishish mumkin bo'lgan mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarishning maksimal hajmini yaratish qobiliyatini ochib beruvchi va oldindan belgilab beruvchi istiqbolli iqtisodiy salohiyatdir [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning tizimli tahlil, tarixiylik, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Davlatni bozorga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga o'tish raqobatbardosh kurashining kuchayishi bilan birga paydo bo'ladi. Uning asosiy maqsadi bu bozorlarning tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish asosida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mamlakat aholisining turmush sifati va darajasini, daromadlari va farovonligini oshirishdan iboratdir. Bunday sharoitda korxonalar doimiy ravishda o'zlarining raqobatbardoshligini isbotlashlari, iste'molchilarning xohish-istaklari, talab va taklif nisbatlarining o'zgarishini kuzatishlari, tashqi muhitning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ekologik, texnologik va xalqaro omillar ta'sirining dinamikasi va tendentsiyalarini baholashlarini talab qiladi.

Sanoat korxonaning iqtisodiy salohiyati ichki funktsional potentsiallar to'plamini optimal foydalangan holda (intellektual, texnologik, ishlab chiqarish va boshqalar) shuningdek, tashqi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish va maksimal darajada qondirish uchun tizimning umumiy imkoniyatlari deb tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, korxonaning iqtisodiy salohiyati – bu mavjud bo'lgan ishlab chiqarish omillari (mehnat va tabiiy resurslar, asosiy va aylanma mablag'lar), mulkdorlar hamda menejerlarning tadbirkorlik qobiliyatlari va korxonaning o'z faoliyati maqsadiga erishish qobiliyatini, maqsadli bozorlar imkoniyatlarini va korxonaning raqobatbardoshligini hisobga olgan holda (ishlab chiqarish va boshqaruv texnologiyalari, innovatsiyalar va boshqalar) amalga oshiriladi [5].

Makroiqtisodiy kontekstdagi iqtisodiy salohiyat bevosita korxonalarda sodir bo'ladigan jarayonlarning mohiyatini ochib bermasdan, faqat umumiy holatni, rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini tavsiflaydi. Unga prognoz va rejalar tuzish, samarali qarorlar qabul qilish, korxonaning faoliyatini turli sohalarida ma'lum maqsad-

larga erishish imkoniyatlari to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlarga ega bo'lish hamda barcha cheklovlarni hisobga oladigan integral baholash kabi jarayonlar kiradi. Turli sohalarida "salohiyat" atamasi maqsadlarga erishishning umumiy imkoniyatlari deb belgilanishi mumkin ^[6]. Ushbu atama hozirgi bosqichdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini aks ettirishi va korxona faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit baholash xususiyatlarini o'z ichiga oladi.



1-rasm: Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatining funktsional to'plami

Boshqaruv nazariyasi bo'yicha xorijiy nashrlarda korxonalarning iqtisodiy salohiyati muammolari bo'yicha tadqiqot natijalari keng yoritilgan. Ular "salohiyat" tushunchasining korxonaga nisbatan quyidagilar bilan izohlaydi: resurs, sanoat, innovatsion, investitsion, moliyaviy, intellektual, mehnat, tashkiliy, boshqaruv, strategik salohiyat va boshqalardir.

Zamonaviy olimlar iqtisodiyotning rivojlanishini ishlab chiqarish omillarining printsiplari jihatidan yangi kombinatsiyalarini o'rnatadigan innovatsion salohiyat bilan bog'laydi. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar bo'yicha, sanoat korxonasining iqtisodiy salohiyatini rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyot – bu bilimlarga, innovatsiyalarga, yangi g'oyalarga, qayta tizimlar va texnologiyalarni inson faoliyatining turli sohalarida amaliy qo'llash deb hisoblanadi. Innovatsion salohiyatning asosiy maqsadi bu foyda manbai hisoblanadi lekin u oddiy takror va eski metododik ishlab chiqarish (iqtisodiy aylanma) sharoitida mavjud bo'lmaydi. Chunki, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish faoliyati zamonaviy texnika va texnologiya, yangi bozorlarni o'zlashtirish va bozor tuzilmalarini qayta tashkil etishni talab qiladi. Har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion omillarning kombinatsiyasidan ustun foydalanish uni rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tkazishning mohiyati bo'lib, unga bozor sharoitida eng muhim xususiyatlarni – iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni qo'lga kiritish imkonini beradi.

Iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish ko'p jihatdan uning tarkibiy elementlarini malakali boshqarishga bog'liq.

Sanoat korxonaning iqtisodiy salohiyatini boshqarish deganda mavjud tashkiliy tuzilmasi doirasida iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-psixologik usullarning kombinatsiyasidan foydalanish orqali amalga oshirilishi tushuniladi. Ushbu usullar korxonaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va undan foydalanishni boshqarish funktsiyalarini bajarishga qaratiladi.

Sanoat korxonaning iqtisodiy salohiyatini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish joriy va istiqbolli (strategik) ishlab chiqarishni shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etadigan mehnat, moliyaviy, axborot va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Korxona maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan resurslardan foydalanish usullari ko'p jihatdan ushbu mexanizmga tayanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, korxona o'zining uzoq muddatli raqobatbardosh siklini o'rnatishi uchun u maksimal darajada o'zining iqtisodiy salohiyatidan foydalanib ish faoliyatini yo'lga qo'yib, raqobatchilarning salohiyatidan tezroq o'sishi kerak. Buning uchun korxona salohiyatini baholash, rejalashtirish, rivojlantirish, oshirish va undan foydalanish zarurligini ifodalaydi va iqtisodiy salohiyat boshqaruv kontseptsiyasini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarning salohiyat imkoniyatlarini boshqarish bu biznes natijalarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash muammolari dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Bundan asosiy maqsad va amaliy vazifa bu sanoat korxonalarining strategik vaziyatida "boshqaruv" (menejment) iqtisodiy barqarorligining asosi va iqtisodiy salohiyatini yaratish va oshirish sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu oqilona maqsad va vazifalarga erishish uchun menejment mavhum tushunchalar bilan emas, balki sanoat korxonalarning iqtisodiy salohiyatini va uning dinamikasini adekvat baholaydigan aniq ko'rsatkichlarini belgilaydi.

Hozirgi vaqtda innovatsion muhit yuqori dinamiklik va kuchayib borayotgan raqobat bilan ajralib turadi, bu tizimli iqtisodiy rivojlanishining mantiqiy natijasidir. Biroq, sanoat korxonalarning iqtisodiy salohiyatini tizimli monitoring qilish uchun jahon va milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi tasodifiy davr sifatida emas, balki har bir bozor



sub'ektidan, eng avvalo, yuqori sifatli strategik rivojlanishga ega bo'lishni o'zaro talab qiladigan biznes boshqaruvini amalga oshirish zarurligi ko'zda tutiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shuni aytib o'tishimiz mumkinki, innovatsion sharoitida sanoat korxonalari o'z oldiga ikkita ustuvor strategik vazifani qo'yadi:

- *birinchidan*, operatsion kapitalning doimiy o'sishi maqsadli biznes sifatida mulkni oshirish;
- *ikkinchidan*, tartibga solinmagan va o'zgaruvchan biznes muhitida korxonaning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ya'ni, potentsial bankrotlikning oldini olish uchun maqsadli boshqaruv harakatlari tushuniladi.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyat toifasini ilmiy-nazariy o'rganishning dolzarbligini, keyinchalik undan biznesni boshqarishda foydalanishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati elementlarini aniqlash bo'yicha adabiyotlarda mavjud bo'lgan yondashuvlarni umumlashtiramiz.

1-jadval: Korxonaning iqtisodiy salohiyatini aniqlaydigan yondashuvlar

№	Yondashuv	Iqtisodiy salohiyatning talqini
1	Resurslararo	Korxonada mavjud bo'lgan resurslarning umumiyligi - bu holda saolohiyatni baholash korxona aktivlarining qiymatini aniqlash qobiliyati;
2	Samarali	Korxonaning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash qobiliyati;
3	Maqsadli (strategik)	- Jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun resurslarni ishlab chiqish va qayta ishlash; - tadbirkorlik muhitini yaratish, inson resurslarini saqlash, rivojlantirish va ulardan foydalanish; - ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiy qiymatni amalga oshirish qobiliyati.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilamiz:

1. Deyarli barcha yondashuvlarning muhim xususiyati ularning iqtisodiy salohiyatni resursga asoslangan tushunishga yo'naltirilganligi bo'lib, korxonaning sanoat tarmog'iga qarab iqtisodiy salohiyatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini oldindan belgilab beradi.
2. Iqtisodiy salohiyatning mohiyatini aniqlashda ular birinchi navbatda korxonaning mavjud imkoniyatlariga, uning erishilgan salohiyat darajasini yoki erishmoqchi bo'lgan natijalarga baho beradilar.
3. Korxonaning ma'lum bir davrdagi iqtisodiy salohiyatini uning ma'lum miqdor va sifat natijasini ishlab chiqarish qobiliyati deb hisoblash mumkin. Lekin, shu bilan birga, korxonaning iqtisodiy salohiyatini baholashda uning yaqin kelajakda erishilgan natijalarni oshirish va kapitalning barqaror o'sishini ta'minlash uchun real imkoniyatlarini hisobga olish zarur ^[7].

Tashqi innovatsion muhit iqtisodiy salohiyatning murakkabligiga va uning tarkibiy elementlarining o'zaro munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda xo'jalik yurituvchi sub'ektning bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashish qobiliyatini belgilovchi omillardan biri bu har bir korxonaning iqtisodiy salohiyatining ahamiyati ortib borish darajasidir. Bozor muhitining doimiy o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish, bozorda korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishning ob'ektiv zarurati hisobdanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Binobarin, raqobatbardoshlik bilan bog'liq barcha masalalar mamlakat uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi chunki uning raqobatbardoshligini iqtisodiy salohiyat hamda mavjud bo'lgan barcha resurslardan samarali foydalaniganligi belgilaydi. Shunday qilib, iqtisodiy salohiyat mamlakat miqyosida emas balki korxonalar darajasida hal qilinishi zarur. Umuman aytganda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishni takomillashtirish tufayli davlatning rivojlanishi, umummilliy manfaatlari, xususan, iqtisodiy manfaatlarining shakllanishi bilan bir vaqtda yuzaga keladi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini boshqarish mavjud salohiyatni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishdan iborat. U hamda korxonada ro'y berayotgan innovatsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, samarali potentsialni boshqarish uchun boshqaruv ta'siri yordamida korxona faoliyatining turli tomonlarini o'zgartirish



kerakligini belgilaydi. Bu esa iqtisodiy sohada qabul qilingan “innovatsiya” toifasining mazmuniga mos keladigan fan hisoblanadi. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini boshqarish korxonalarning maqsadlari va ularga erishish uchun mavjud resurslar bilan belgilanadi, bu esa korxonaning salohiyatini va uning ko'lamini belgilaydigan maqsadlarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.F. Galiyeva. (2012). Teoretiko-metodolicheskiye osnovi innovatsionnogo razvitiya ekonomiki. Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 21. Upravleniye gosudarstvom obshestvo 46 b.
2. S. N. Tatarnikova. Anri Fayol (2019): Obsheye i promishlennoye upravleniye. Gumanitarniy portal
3. T.I. Yefimenko, P.M. Leonenko. 2014. Nauchnoye tvorchestvo Y.A. Shumpetera kak innovatsionnaya deyatel'nost' i sovremennost. Vestnik Permskogo natsionalnogo issledovatel'skogo politexnicheskogo universiteta. Sotsialno-ekonomicheskkiye nauki 84b. file:///C:/Users/user/Downloads/nauchnoe-tvorchestvo-y-a-shumpetera-kak-innovatsionnaya-deyatelnost-i-sovremennost.pdf
4. B.M. Mochalov (1982). Ekonomicheskii potentsial razvitogo sotsializma Ekonomika,. – 175 bet.
5. L.V. Orlova. (2020). Konkurentosposobnost' natsionalnoy Ekonomiki kak element ekonomicheskoy bezopasnosti strani. Belorusskiy gosudarstvenniy universitet. 637b. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/268569/1/637-644.pdf>
6. Z.L. Dzakoyev. (2015). Ekonomicheskii potentsial predpriyatiya: soderjaniye i upravleniye. Vestnik Vladikavkazskogo nauchnogo sentra. 58 b.
7. V.V. Skobara Etapi analiza ekonomicheskogo potentsiala sel'sko xozyaystvennix predpriyatiy V.V. Skobara, V.V. Podkopyayev // Uche nyie zapiski Rossiyskoy akademii predprinimatel'stva. – 2015. – Вып. 42. – 260-267 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

